

CHORTOQ TUMANI AGROTSENOZIDAG I TUNLAMLAR FAUNASI VA ULARNI FENOLOGIYASI

SH. X. Yusupova
NamDU Biologiya kafedrasi

Ma`lumki qishloq xo`jalik ekinlari zararkunandalari orasida tunlamlar Noctuidae oilasi vakillari asosiy o`rinni egallaydi. Sifatli va mo`l - ko`l qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tunlamlar oilasi vakillari ko`plab ekinlarda zararkunandalik qilib, ularni hosilini sifatini pasayishiga va miqdoriga esa kamayib ketishiga sabab bo`lmoqda. Tadqiqotchilarning aniqlashicha tunlamlar g'o`zani hosildorligini 50% gacha, kamaytirib yuborishi mumkin [1,2].

Zararkunandalarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda, shu agrotsenozlardagi ularning tur tarkibini aniqlash hamda ularni uchish fenologiyasini o`rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun biz Namangan viloyati o`simliklarni himoya qilish Markazi ma`lumotlari va shaxsiy kuzatishlar bilan tunlamlar ustidagi tadqiqotlarimizda CHortoq tumani g'o`za agrot[senozlaridagi tunlam kapalaklarini tur tarkibini hamda ularning uchish fenologiyasini o`rgandik [3,4,5].

Olingan natijalar shuni ko`rsatadiki, 2011 yil iyun-sentyabr va 2012 yil may oylarida CHortoq tumani g'o`za agrotsenozlaridan quyidagi 18 ta turga mansub: *Agrotis segetum* Den.et. Schiff, *A.exclamationis* L., *A.ipsilon* Hufn., *Discestra trifolli* Hufn., *Mythimna Vitellina* Hbn., *Mythimna I-album* L., *Trchoplusia ni* Hbn., *Macdunnoudhia confusa* Steph., *Autographa gamma* L., *Plusia festucae*, *Corhituplusia circumflexa* L., *Emmelia trabealis* Scop., *Heliothis viriplaca* Huhn., *H.peltigera* Den. Et Schiff., *H.maritima* Cras., *H.armigera* Hubner., tunlam kapalaklari uchrashi aniqlandi.

Aniqlangan tunlam kapalaklari 5 ta kenja oila: Agrotinae, Hadeninae, Jaspidinae, Plussinae, Heliothinae va 13 ta: *Agrotis*, *Xestia*, *Euxoa*, *Discestra*, *Mythimna*, *Macdunnoughia*, *Autograha*, *Plusia*, *Cornutiplusia*, *Trichoplusia*, *Emmelia*, *Heliothis* va *Helicoverpa* avlodlariga mansub.

CHortoq tumani g'ozaga agrotsenozlarida tunlam kapalaklarining uchish fenologiyasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularni shartli ravishda ko'p sonli va kam sonli turlar guruhiga ajratish mumkin. Ko'p sonli turlardan: kuzgi tunlam, undov tunlami, epsilon tunlami, S-qora tunlami, g'ozaga tunlami va beda tunlamlari bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarining xavfli zararkunandalari hisoblanadi.

Bizning fikrimiz bo'yicha CHortoq tumanida *Agrotis segetum* Den. et Shiff, *A. exclamationis* L., *Xestia C-nigrum* L., *Discestra trifolli*, *Macdunnoudhia confusa*, *Mythimna I-album* L., *Plusia festucae*, *Corhituplusia circumflexa*, *Emmelia trabealis* Scop, *Heliothis virescens*, turlari 2-3 avlodda rivojlanishi mumkin. Lekin aniq xulosa qilish uchun kuzatuvlar 2-3 yil mobaynida erta bahordan kech kuzgacha davom etish kerak.

Albatta biz keltirgan fenologik kuzatuvlar turli yillarda turlicha bo'lishi mumkin. Tunlamlar fenologiyasiga asosan atrof-muhit faktorlari kuchli ta'sir qiladi. Sovuqroq kelgan yillarda avlodlar soni kamayib va aksincha, issiq kelgan yillarda avlodlar soni oshishi mumkin. 2011 yilgi qishdagi sovuq ko'plab ildiz qurtini qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Lekin shunga qaramay tunlamlar bahorni issiq kelishi bilan ularni soni yana ko'pchilikni tashkil etdi.

ADABIYOTLAR

1. Olimjonov A. „Entomologiya“ Toshkent „O'qituvchi“ 1977, -B. 224-240.
2. Xo'jayev SH.T., Abduqaharov V.S., Yusupova M.N. G'ozaga tunlami va feromon /O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda ilg'or tajriba (maqolalar to'plami). – Toshkent, 2008. –B. 22-29
3. Добровольский Б.В. Фенология насекомых. М.: Высшая школа. 1969. –С. 45-49
4. Палий В. Ф. Методика фенологических и фаунистических исследований насекомых. - Фрунзе. 1996. -С. 78-81
5. Фастулати К. К. Полевое изучение наземных беспозвоночных. Москва “Высшая школа” 1971. –С. 67-74.